

O‘ZBEKISTON RSEPUBLIKASI TOG‘ KON SANOATI VA GEOLOGIYA VAZORLIGI

NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

KONCHILIK FAKULTETI

«HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI»

KAFEDRASI

FAVQULODDA VAZIYATLARDA XAVFSIZLIK FANIDAN

Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishda boshqaruvni tashkil etish.

mavzusida

OCHIQ DARS

Ma’ruzachi: “HFX” kafedrasi dotsent v.b.

Babayev SHarofjon Rahmatjonovich

NAVOIY-2025

DARS TAHLILI

O’qituvchi Babayev Sh.R..
Gurux 43-23 MMTX
Sana 07.04.25 y.
Tahlil vaqti soat 09. 3^0 minutdan 10^{50} gacha auditoriya 418 V

Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishda boshqaruvni tashkil etish.

t/r	Mashg’ulot sifati mezonlari	ball		izox
1	**2**	**3**	**4**	**5**
	1. Mashg’ulotning tashkiliy darajasi:			
1.	**Mashg’lotning o’z vaqtida boshlanishi:**			
	1.1. Mashg’ulot o’z vaqtida boshlandi	10.0		
	1.2. Mashg’ulot o’qituvchining aybi bilan barbod bo’ldi	0		
2.	**Auditoriyaning mashg’ulotga tayyorgarlik darajasi:**			
	2.1. Auditoriya mashg’ulot o’tishga tayyor	5.0		
	2.2. Auditoriya mashg’ulot o’tish tayyor emas	0		
3.	**Guruh jurnalning rasmiylashtirish darajasi**			
	3.1. Jurnal belgilangan tartibda to’liq rasmiylashtirilgan	5.0		
	3.2. Jurnal qisman rasmiylashtirilgan	2.0		
	3.3. Jurnal rasmiylashtirilmagan	0		
4.	**Davomat darajasi:**			
	4.1. 100%	10.0		
	4.2. 95 va undan yuqori %	8.0		
	4.3. 90 va undan yuqori %	6.0		
	4.4. 80 va undan yuqori %	4.0		
	4.5. 80 foizdan past	0		
	II. Mashg’ulotning nazariy-uslubiy ko’rsatkichlari va ta’minot darajasi:			
5.	**Mashg’ulot bo’yicha 2021 yil chop etilgan o’quv-uslubiy majmuaning mavjudligi:**	**6.0**		
	5.1. Mashg’ulot kafedra tavsiya etgan o’quv-uslubiy majma asosida olib borildi	3.0		
	5.2. Mashg’ulot eski o’quv-uslubiy majmua asosida o’tildi	1.0		
6.	**Mashg’ulotning ishchi o’quv dasturi va taqdim rejasiga moslik darajasi:**			
	6.1. Mavzu ishchi o’quv dasturi va taqvim rejasiga to’liq mos keladi	4.0		
	6.2. Mavzu ishchi o’quv dasturi va taqvim rejasiga qisman mos keladi	2.0		
	6.3. Mavzu ishchi o’quv dasturi va taqvim rejasiga mos kelmaydi	0		
7.	**Mashg’ulotning ilmiylik darajasi:**			
	7.1. Mavzuga oid dolzarb masalalarining tahlili keltirildi	8.0		
	7.2. Mavzuga oid dolzarb masalalarining tahlili qisman keltirildi	4.0		
	7.3. Mavzuga oid dolzarb masalalarining tahlili keltirilmadi	0		

8.	**Talabalarning mashg'ulotni qabul qiluvchilik darajasi:**			
	8.1. Mavzuni mohiyatini talaba to'liq o'rganib olganliklari kuzatildi	8.0		
	8.2. Mavzuni mohiyatini talaba o'rtacha o'rganib olganliklari kuzatildi	4.0		
	8.3. Mavzuni mohiyatini talaba o'zlashtira olmaganligi kuzatildi	0		
9.	**Mashg'ulotda talabalarning faollik darajasi:**			
	9.1. Mashg'ulotda talabalarning yuqori darajadagi faolligi kuzatildi.	6.0		
	9.2. Mashg'ulotda talabalarning faolligi o'rtacha bo'ldi	3.0		
	9.3. Mashg'ulotda talabalarning faolligi kuzatilmadi	0		
10.	**Mashg'ulot mavzusi bo'yicha adabiyotlar ruyxatini mavjudligi:**			
	10.1. Mavzuga oid yangi o'quv adabiyotlar talaba e'tiboriga yetkazildi	3.0		
	10.2. Mavzuga oid yangi o'quv adabiyotlar talaba e'tiboriga qisman yetkazildi	2.0		
	10.3. Mavzuga oid yangi o'quv adabiyotlar talaba yetkazilmadi	0		
III. Mashg'ulot qo'llanilgan uslublar:				
11.	**Mashg'ult olib borilishi sifati:**			
	a'lo	15.0		
	yaxshi	8.0		
	o'rta	3.0		
12.	**Mashg'ulotda axborot texnologiyalarni qo'llash darjasi:**			
	qo'llanildi	10.0		
	qo'llanilmadi	0		
14.	**Mashg'ulotda pedagogik texnologiyalarni qo'llash darajasi:**			
	qo'llanildi	10.0		
	qo'llanilmadi	0		
O'qituvchi to'plagan umumiy ball:				

Jami to'planadigan ball 120 bal

O'qituvchi to'plagan ball _____

Taxlil a'zolari:

_____

_____

(komissiya a'zosining F.I.SH.) (imzo)

Mashg'ulot tahliliga kirgan komissiya a'zosining fikr-mulohazalari:

_____

_____

_____

_____

_____

Mashg'ulot sifatini baholash mezonlari:				
maksimal ball 100.0	a'lo 86.0-100.0	yaxshi 71.0-85.0	qoniqarli 55.0-70.0	qoniqarsiz 55 dan past

NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI "KONCHILIK" FAKULTETI "HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI" KAFEDRASINING YIG'ILISH BAYONI № ____

«TASDIQLAYMAN»
NavDKvaTU Konchilik fakulteti
"Hayot Faoliyati Xavfsizligi"
kafedrasi mudiri
_____ prof. R.Jurayev
«_____» _____ 2025 yil

BAYONNOMA

Raislik qildi: "Hayot faoliyati xavfsizligi"kafedrasi mudiri prof. R.Jurayev
Qatnashdilar: kafedra professor-o'qituvchilari va ishchi xodimlari.

K u n t a r t i b i:

1. Kafedra a'zolarining ochiq darslari muhokamasi haqida

Yig'ilish kun tartibiga qo'yilgan kafedra a'zolarining ochiq darslar muhokamasi haqidagi masala yuzasidan kafedra mudiri, professor **R.Jurayev** so'zga chiqib, kafedraning dotsent v.b.SH.RABabayev tomonidan 2025yil 7 aprel kuni soat 9^{20} da Konchilik fakulteti 429V-xonasida 43-23 MMTX guruhlariga "**favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik**" fanidan **"Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishda boshqaruvni tashkil etish"** mavzusida ochiq ma'ruza darsi o'tkazilganligini, unda Qizil yarim oy jamiyati Navoiy viloyat hududiy boshqarmasi bosh mutaxasisi To'qsonova Lobar- kafedra professor-o'qituvchilari X.Rabbimov,M.Ravshanova,.D.Oljayev qatnashganligini, ochiq dars yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda juda qiziqarli tashkil etilganligini ta'kidlab o'tdi.

Shundan so'ng kafedra professor-o'qituvchilari X.Rabbimov va M.Ravshanovalar ham Sh.Babayev tomonidan o'tkazilgan ochiq ma'ruza darsi juda qiziqarli va yangi ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etilganligini, bunday ma'ruzalardan yosh o'qituvchilar o'zlariga ko'plab bilim, malaka va ko'nikmalarni olishimiz mumkin deya ta'kidladilar.

YIG'ILISH QAROR QILADI:

1. Kafedra a'zolarining ochiq darslarini tashkil etish va uni o'tkazishda ko'plab yoshlarni jalb qilishni tashkil etilsin va nazoratga olinsin.
2. Kafedrada o'qitiladigan barcha fanlarni o'qitishda yangi intensiv – axborot texnologiyalarini qo'llanish darajasi doimiy nazoratga olinsin.

"Hayot Faoliyati Xavfsizligi"
kafedrasi mudiri: prof. R.Jurayev
Kotib: Normaev Q.

MA'RUZA MATNI

Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik
fani bo'yicha ma'ruzalar

Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishda boshqaruvni tashkil etish.

22- Mavzu: Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishda boshqaruvni tashkil etish.

Reja:

1. Boshqaruvning mohiyati, asosiy vazifalari va unga qo‘yiladigan talablar.
2. Boshqaruv punktlari, vazifalari va ularni joylashtirish.
3. Fuqaro muhofazasi tadbirlarini o‘tkazish uchun ma’lumotlar to‘plash, sharoitga baho berish, qaror qabul qilish va vazifalarni belgilash.
4. O‘zaro hamkorlikni tashkil etish.

Boshqaruvning mohiyati, asosiy vazifalari va unga qo‘yiladigan talablar.

Fuqaro muhofazasini boshqarishning mohiyati fuqaro muhofazasi xizmati, respublika rahbar organlari, fuqaro muhofazasi boshliqlari, bo‘lim va boshqarmalar, komissiyalar, xizmatlarning doimiy maqsadni ko‘zlagan faoliyatidan iborat bo‘lib, quyidagi tadbirlarni tayyorlash va o‘tkazishga qaratilgan:

aholini tabiiy ofatlardan, avariyalardan, halokatlardan muhofaza qilish; iqgisodiyot obyektlari va tarmokdarining barqaror ishlashini ta’minlash; boshqaruv organlarining, fuqaro muhofazasi kuch va vositalarining shayligini yuqori darajada saqlash;

avariya-qutqaruv va boshqa shoshilinch ishlarni muvaffaqiyatli o‘tkazish.

Fuqaro muhofazasini boshqarishning asosiy vazifalari: favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni tugatish uchun fuqaro muhofazasi boshqaruv organlari va tizimlarining doimo shay turishini ta’minlash;

fuqaro muhofazasi rejalarini ishlab chiqish va takomillashtirish; fuqaro muhofazasi tadbirlarining yillik va istiqbol rejalarini ishlab chiqish hamda ularning ijrosini nazorat qilish;

muhofaza inshootlari va shaxsiy muhofaza vositalarini ko‘paytirishlarini tashkil etish;

favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda iqgisodiyot obyektlari, birlashmalari va tarmoqlari barqarorligini ta’minlash bo‘yicha ilmiy-tadqiqot, tashkiliy, texnologik va muhandislik-texnik tadbirlarni amalga oshirish va ularni ishlab chiqarishga tadbiq etish;

tabiiy ofatlar, avariyalar, halokatlar sodir bo‘lganda avariya-qo‘tqaruv va boshqa shoshilinch ishlarni o‘tkazish uchun fuqaro muhofazasi organlari, kuchlari va vositalari, aholining tayyorligini ta’minlash; aholini va hududlarni favqulodsa vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi axborotlarni yig‘ish, qayta ishlash va berish.

Boshqaruv uzluksiz, barqaror, moslanuvchan (tezkor), yashirin bo‘lishi kerak.Boshqaruv punktlari, vazifalari va ularni joylashtirish. Boshqaruv punkta (BP) - bu tegishli fuqaro muhofazasi organi joylashtirilishiga va barqaror ishlashini ta’minlashga mo‘ljallab, maxsus uskunalangan yoki texnik vositalar bilan jihozlangan inshoot yoki transport vositasi (yoxud majmua), Ular fuqaro muhofazasining barcha bo‘g‘inlarida tuziladi.Qanday maqsadlarda mo‘ljallangani va joylashgan o‘rniga qarab boshqaruv punktlari iqgisodiyotning hududiy va tarmoq bo‘g‘inlarida bo‘lishi mumkin.Ko‘chma, havodagi boshqaruv punktlari, favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish kuchlari va vositalarini boshqarish punktlari ham bo‘ladi.

Fuqaro muhofazasi hududiy xizmatlarining boshqaruv punktlarini tegiishi fuqaro muhofazasi boshliqlari joylashadigan boshqaruv punktlari yaqinidajoylashtirish kerak.

Ko‘chma boshqaruv punktlari (KBP) respublikada, Qoraqalpog‘iston Respublikasida, viloyatlarda, shaharlarda, tumanlarda, iqgisodiyot obyektlarida oldindan tashkil etilib ko‘yiladi. Ko‘chma boshqaruv punktlari shikast o‘chog‘ida yoki tabiiy ofat zonalaridagi eng mas’uliyatli yo‘nalishlarda qutqaruv va boshqa shoshilinch ishlarni o‘tkazish hamda fuqaro muhofazasi kuchlariga bevosita rahbarlik ilishni ta’minlash uchun mo‘ljallangan.

Ko‘chma boshqaruv punktlari maxsus yoki moslashtirilgan ko‘mondon-shtabmashinalarida yo‘lga ko‘yiladi. Ularda ish o‘rinlari jihozlanadi hamda fuqaro muhofazasi boshlig‘ining yuqori organlar, zaxiradagi boshqaruv punkti tasarrufidagi organlar va fuqaro muhofazasi kuchlari bilan aloqasini ta’minlab beradigan aloqa vositalari o‘rnatiladi. Havodagi boshqaruv punktlari (HBP) respublika, viloyat, toifalangan shaharlarning bo‘g‘inlarida vertolyot, samolyotlar bazasida, yerdagi boshqaruv punktlaridan boshqarish qiyinlashgan yoki mumkin bo‘lmay qolganda FVDTkuchlarini boshqarishga mo‘ljallangan bo‘ladi.

FVDTning axborot-boshqaruv tuzilmasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Favqulodda vaziyatlar vazirligining favqulodsa vaziyatlarda boshqarish markazi;

FVDT hududiy va funksional quyi tizimlarining axborot-taxdil markazlari;

atrof tabiiy muhit va kuchli xavfli obyektlar holatini kuzatish va nazorat qilish organlarining axborot markazlari;

favkulodda vaziyatlarni bartaraf etish kuchlari va vositalarini boshqarishning harakatlanuvchi punktlari;

aloqa va axborot uzatish vositalari, shu jumladan boshqarish va axborot bilan ta’minlashning avtomatlashtirilgan tizimi.
Fuqaro muhofazasi tadbirlarini o‘tkazish uchun ma’lumotlar to‘plash, sharoitga baho berish, qaror qabul qilish va vazifalarni belgilash. Boshqaruvning asosiy hujjati Favkulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish harakatlari rejasi hisoblanadi. Shikastlanish o‘chokdarida qutqaruv va boshqa kechiktirib bo‘lmaydigan ishlarni boshqarish uchun asos ushbu ishlarni o‘tkazish uchun fuqaro muhofazasi boshlig‘i qabul qilgan qarordir.
Qutqaruv ishlarini o‘tkazish uchun boshliqning qaroriga asos sharoitgaberilgan bahodan kelib chiqqan xulosalar hisoblanadi. Shu maqsadsa hamma fuqaro muhofazasi organlari tabiiy ofatlar, avariyalar, halokatlar sodir bo‘lganda, o‘z ixtiyoridagi umumiy va maxsus razvedka kuchlari va vositalarining bor imkoniyatlaridan yuqori darajada foydalanib, tasarrufidagi va o‘zaro hamkor organlardan, harbiy qo‘mondonlik organlaridan, qo‘shnilardan, shuningdek yuqori fuqaro muhofazasi organlaridan va boshqa manbalardan (kundalik boshqaruv organlari, axborot-boshqaruv kuyi tizimi) yuzaga kelgan sharoit haqida ma’lumot to‘plashni tashkil etadi.
Sharoit haqidagi ma’lumotlar taxdiliga (ularga berilgan bahoga) asosan fuqaro muhofazasi xizmatlari boshlikdari qabul qiladigan qarorlar yuzasidan xulosalar va takliflar tayyorlab, fuqaro muhofazasi boshlig‘iga axborot beriladi. Sharoitga baho berishda fukaro muhofazasi boshliqlari quyidagilarni o‘rganib chiqadi:tabiiy ofat, avariya, halokat yuzaga kelgan joy, xarakteri, ko‘lami;viloyat (shahar, tuman, obyekt) xududidagi kuch va vositalarni olg‘a olib chiqish yo‘llaridagi vayronaliklar (suv bosishlar), yong‘inlar va shikastlanishlarning xarakteri, hajmi; amalga oshiriladigan ishlar turi va hajmi; radiatsiyaviy, kimyoviy, bakteriologik va boshqa sharoit, uning qutqaruv va boshqa ishlar o‘tkazishga ko‘rsatadigan ta’siri;
fuqaro muhofazasi kuchlari va vositalarining, boshqaruv organlarinish tarkibi, holati, ta’minoti va imkoniyatlari; qo‘shimcha (maxsus) kuchlar jalb etish ehtiyoji; shikastlanish o‘chog‘i chegarasiga (tabiiy ofat, avariya, halokat joyiga) yondosh ko‘shni shaharlardagi, shahar (qishloq) tumanlaridagi, obyektlardagi fuqaro muhofazasi kuchlari va vositalarining ahvoli, xarakteri, faoliyati, ular bilan hamkorlik qilish shartlari;
kuchlar va vositalarning shikastlanish o‘chog‘iga (tabiiy ofat, avariya, halokat (joyiga) va ishlash obyektlariga borish marshrutining holati va

joy tavsifi; gidrometeorologik sharoit, ob-havo holati, yil fasli va kecha-kunduz vakti; qutqaruv ishlari o‘tkazish uchun kuch va vositalar kiritishning eng maqbul yo‘nalishlari, qutqaruv ishlarini o‘tkazish chog‘idagi xavfsizlik choralari.Shikastlanish o‘chog‘ida (tabiiy ofat, avariya, halokat joyida) yuzaga kelgan sharoitga baho berish va qo‘yilgan vazifalarni aniqlashtirish yuzasidan shaxsan o‘zi olib borgan ishlar natijasida, shuningdek FVDT organlarining xulosalari va takliflarini hisobga olib fuqaro muhofazasi boshliqlari shikastlanish (zararlanish) o‘choqlarida avariya-qutqaruv va boshqa shoshilinch ishlarni o‘tkazish haqida qaror qabul qiladi. Fuqaro muhofazasi boshlig‘i qaror qabul qilishni ta’minlash maqsadida xizmatlar va boshqaruvning boshqa organlari bilan hamkorlikda sharoitni, kuch va vositalarni, meteorologik shart-sharoitlarni o‘rganib, baho beradi. Fuqaro muhofazasi boshlig‘i qutqaruv va boshqa shoshilinch ishlarni o‘tkazish haqida qaror qabul qilarkan, kuyidagilarni belgilab oladi: harakatlar mazmuni;

tuzilmalarning asosiy kuchlarini qaerda va qanday sharoitda jamlash; ishlarni, kuch va vositalar manyovrini qanday tartibda (qanday ketma-ketlikda) amalga oshirish; birinchi smena tuzilmalari va bo‘linmalarining vazifalari; ikkinchi va undan keyingi smenalarning, rezervning vazifalari; ishlarni o‘tkazishda xavfsizlik choralari; ishlarning boshlanish vatugash vaqtlari; hamkorlik qilish tartibi; qutqaruv ishlarini o‘tkazish vaqgida tuzilmalarni moddiy, texnik va boshqalar bilan ta’minlash tadbirlari,boshqaruvni tashkil etish (boshqaruv organlari va ularning dublyorlari,boshqaruv punktlari, ma’lumot berish tartibi).O‘zaro hamkorlik. Qutqaruv ishlarini o‘tkazishda fuqaro muhofazasi organlari va kuchlarning hamkorligini tashkil etish tartibini aniqlab ko‘yish fuqaro muhofazasi boshlig‘ining avariya-qutqaruv ishlarni o‘tkazish haqidagi qarorining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.Hamkorlik fuqaro muhofazasining har bir bo‘g‘inida aniqlanadi (tashkiletiladi). Bundan maqsad birgalikdagi harakatlar vazifalarini, maqsadparini va vaqgini kelishib olish, shuningdek asosiy vazifa bajarilishini kuzlab turli kuch va vositalarning imkoniyatlaridan samaraliroq foydalanishdir.Avariya-qutqaruv ishlarini o‘tkazish haqida tezda qaror kabul kilish bilan birga vazifalarni ijrochilarga o‘z vaqgida yetkazilishining ham, ular bajarilishini aniq tashkil etishning ham ahamiyati katta.Tasarrufdagi fuqaro muhofazasi organlariga, tuzilmalar komandirlariga,biriktirilgan qismlar (bo‘linmalar)ga vazifalar fuqaro muhofazasi boshlig‘ining shaxsan o‘zi tomonidan yoki fuqaro

muhofazasi organlari orqali buyruqlar yoki farmoyishlar shaklida beriladi.

Fuqaro muhofazasi boshlig‘i tasarrufidagi fuqaro muhofazasi kuchlarini boshqarish va ular tomonidan qo‘yilgan vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishi uchun to‘la javobgardir.Fuqaro muhofazasi boshlig‘ining qarorini to‘la amalga oshirishga imkon beruvchi boshqaruvning to‘liq, samarali va moslashuvchan tizimisiz favquloddavaziyatlar sharoitida murakkab vazifalarni bajarish mumkin emas.